

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASHDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK

Kamolova Durdona

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19082479>

Annotatsiya Hozirgi zamonda fuqarolarning Ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotgani soha xodimlaridan o'z vazifalarini chin dildan, yuqori mas'uliyat va jonkuyarlik bilan bajarishni taqozo etmoqda. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida Ichki ishlar organlari xodimlarini davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili sifatida shakllantirish orqali xalqning chinakam roziligiga erishish mumkin. Bu jarayonda xodimlar xizmat vazifalariga halol, vijdonan va mas'uliyat bilan yondashib, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolariga qonun doirasida tezkor yechim topish va murojaatlariga o'z vaqtida javob berishni ta'minlashi zarur. Ushbu tamoyil Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning markaziy g'oyasidir. Maqolada mazkur oliy maqsadni samarali ro'yobga chiqarishda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish va oldini olish yo'llari, xususan, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Muammolarning ildiz sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning huquqiy, tashkiliy va nazorat mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ochiqlik va shaffoflik, ariza, taklif, shikoyat, elektron murojaat, takroriy murojaat, murojaatning o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish prinsipi.

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda Ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va istiqbolli rejalar eng avvalo, xalq manfaatlarini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi dolzarb g'oya asosida bajarilmoqda.

Bu borada oldinda qo'yilgan maqsad va natijalarga erishish, har bir Ichki ishlar xodimi timsolida xalq o'zining chinakam himoyachisini ko'ra olishini shakllantirish, xodimlarga xos bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakatlarga to'laqonli rioya qilish orqali Ichki ishlar xodimining yangicha imidjini yaratish va ularni o'z kasbiga nisbatan halol munosabatda bo'lish kabilarni ko'zlagan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi" qabul qilindi va yuqoridagi dasturi-amal vazifalarga erishishni mustahkamlovchi huquqiy asoslardan biri sifatida e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, Ichki ishlar organlari bevosita xalq bilan ishlaydigan tuzilmadir. Ijtimoiy hayot davomida esa tabiiyki, shikoyatlar, xohish-istaklar va turli xil mazmundagi murojaatlar ham yetarlicha. Bu mas'uliyat esa o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklatilgan. Ayniqsa, Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini amalga oshirishda birinchi navbatda fuqaroning murojaatiga xolisona yondashishi va qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko'rilishini ta'minlashi zarur.

Ayni paytda, soha xodimlarining ushbu vazifalarini samarali bajarishlari uchun bir qator sharoitlar va zamonaviy resurslardan foydalangan holda xizmatni olib borish keng ko'lamda yo'lga qo'yilmoqda. Ammo, imkoniyatlar yetarliligiga qaramay mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolar mavjud.

Ochiqlik va shaffoflik Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsipi bo'lib, ular o'z faoliyatini davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ochiq va shaffof tarzda amalga oshiradi.

Bu prinsip "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son qonunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ariza huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosni bayon etuvchi murojaat hisoblanadi. Taklif esa davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaatdir. Shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi talab aks ettirilgan murojaat turidir.

Elektron murojaat deganda, belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat tushuniladi. Takroriy murojaat boshqa murojaat turlaridan farq qiluvchi murojaat bo'lib, u ayni paytda jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan murojaat hisoblanadi.

Shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko'rib chiqish muddati tugagan bo'lsa, ilgarigi murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi to'g'risida xabar qilinayotgan murojaat hamdir. Murojaatning o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish prinsipi esa davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar shu organ, tashkilot tomonidan ko'rib chiqish bo'yicha zimmasiga

majburiyatlar yuklatilgan mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda o'z vaqtida hamda to'liq ko'rib chiqilishi hisoblanadi.

So'nggi yillarda Ichki ishlar organlarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bir qancha ijobiy o'zgarish va yangilanishlar mavjud bo'lsa-da, hali ham ba'zi kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Masalan, murojaat kelib tushgach, uni ko'rib chiqish muddatini uzrli sabablarsiz uzaytirilishi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etish shart bo'lgan davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran 15 kun ichida ko'rib chiqilishi ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-son qonunning 28-moddasi) qonun talabi bo'lsa-da, bu norma talablari har doim ham bajarilmayapti.

Yana bir muammo – javoblarning asoslantirilishining yetarli darajada amalga oshirilmayotganligi. O'RQ-445-son qonunning 27-moddasida murojaatlarga javoblar mumkin qadar murojaat etilgan tilda bayon qilinishi kerakligi, shuningdek, javoblar murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim ekanligi belgilab o'tilgan. Biroq, amaliyotda javoblar umumiy, noaniq va shaffof bo'lmagan holatlar uchraydi. Bu kamchiliklar nafaqat alohida xodimlarning mas'uliyatsizligi, balki tizimiy nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lib, natijada takroriy murojaatlar soni ortib, fuqarolarning ishonchi pasaymoqda.

Ushbu muammolarni kamaytirish va oldini olish maqsadida Ichki ishlar organlari tizimida maxsus "Murojaatlar bilan ishlash bo'limi" shtat birligini joriy etish taklif etiladi. Bu lavozimga oliy huquqiy ma'lumotga ega, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan yurist yoki ofitser tayinlanishi lozim. U murojaatni qabul qilishdan boshlab javob yozishgacha bo'lgan butun jarayonni yuridik jihatdan tekshirib, qonuniylik va shaffoflikni nazorat qiladi.

Yangi shtat egasi va oddiy murojaatlar bilan ishlovchi xodim o'rtasida "tanish-bilish" munosabatlarining oldini olish uchun har oy yakuni bo'yicha tahliliy hisobot tizimini joriy etish ham zarur. Hisobotda ijobiy va salbiy ko'rsatkichlar (muddatga rioya etish, javobning to'liqligi, takroriy murojaatlar soni) aniq ko'rsatiladi. Ijobiy natijalar uchun rag'batlantirish, salbiy holatlar uchun intizomiy choralar qo'llaniladi. Bundan tashqari, elektron murojaatlar uchun maxsus monitoring dasturini yaratish va takroriy murojaatlar bo'yicha alohida statistika va tahlil o'tkazish, agar takroriy murojaatlar ma'lum bir bo'limda ko'p bo'lsa, rahbariyat darajasida chuqur tekshiruv o'tkazish va

aybdorlar javobgarlikka tortish mexanizmlarini yo'lga qo'yish ham samarali yechim bo'ladi.

Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi. Ular xizmat vazifalarini ado etish mobaynida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ayniqsa, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar himoya qilinishini ta'minlashi zarur.

Ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini to'liq joriy etish, murojaatlar bilan ishlashda yuqorida taklif etilgan tashkiliy va nazorat mexanizmlarini qo'llash orqali Ichki ishlar organlari xalqning chinakam himoyachisi sifatida yangi imidjga ega bo'ladi. Bu nafaqat huquqiy talab, balki zamonaviy demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-407-son, 16.09.2016 y.).
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-445-son, 11.09.2017 y.).
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarini xalqchil profilaktik tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarori (20.01.2023 y.).
- 4."Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvar PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan).